



journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

## **GEODEMOGRAPHIC STATUS OF SYRDARYA REGION AND ITS ROLE IN THE TERRITORIAL LOCATION OF SERVICE NETWORKS**

**Mukhayo B. Altibayeva**

lecturer

Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan

**Lola Q. Karshibayeva**

Associate professor, Ph.D.

Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan

**Zulfiya N. Madrakhimova**

Senior lecturer

Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Service, Post-industrial, Gastronomic tourism, recreation.

**Received:** 17.10.22

**Accepted:** 19.10.22

**Published:** 21.10.22

**Abstract:** Focusing on the state of territorial development of the services sector of our republic, it can be seen that there are differences in the volume of services produced by its administrative units. Geographical differences in this regard are primarily due to the level of socio-economic development of the regions, as well as their demographic potential. While progress is the impetus for the development of many intangible areas, the demand of the population, which is their main consumer, increases the type of service offered and the sales of producers.

## **SIRDARYO VILOYATI GEODEMOGRAFIK HOLATI VA UNING XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARI HUDUDIY JOYLASHUVUDAGI O'RNI**

**Muxayyo B. Altibayeva**

o'qituvchi

Guliston davlat universiteti

Guliston, O'zbekiston

**Lola Q. Karshibayeva**

Dotsent, g.f.n.

Guliston davlat universiteti

Guliston, O'zbekiston

Zulfiya N. Madrahimova

Katta o'qituvchi

Guliston davlat universiteti

Guliston, O'zbekiston

## МАQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Xizmat ko'rsatish, Postindustrial, Gostronomik turizm, rekreatsiya.

**Annotatsiya:** Respublikamiz xizmatlar sohasining hududiy rivojlanish holatiga e'tibor qaratsak, uning ma'muriy birliklari ishlab chiqarayotgan xizmatlar hajmida farqlar mavjudligini ko'rish mumkin. Bu boradagi geografik farqlar avvalambor mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi hamda demografik salohiyati bilan bog'liq. Taraqqiyot ko'plab nomoddiy sohalarning rivojlanishi uchun turtki bo'lsa, ularning asosiy istemolchisi bo'lgan aholi talabi esa taklif etilayotgan xizmat turi hamda ishlab chiqaruvchilar salmog'ini oshiradi

## ГЕОДЕМОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЕ РОЛЬ В ТЕРРИТОРИАЛЬНОМ РАСПОЛОЖЕНИИ ОБСЛУЖИВАЮЩИХ СЕТЕЙ

*Мухайо Б. Алтыбаева*

*преподаватель*

*Гулистанский государственный университет*

*Гулистан, Узбекистан*

*Лола К. Каршибаева*

*доцент, кандидат географических наук*

*Гулистанский государственный университет*

*Гулистан, Узбекистан*

*Зульфия Н. Мадрахимова*

*старший преподаватель*

*Гулистанский государственный университет*

*Гулистан, Узбекистан*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** сервис, постиндустриальный, гастрономический туризм, рекреация

**Аннотация:** Обращая внимание на состояние территориального развития сферы услуг республики, можно увидеть, что существуют различия в объеме услуг, производимых ее административными единицами. Географические различия в этом плане обусловлены прежде всего уровнем социально-экономического развития регионов, а также их демографическим потенциалом. В то время как прогресс является стимулом для развития многих нематериальных

отраслей, спрос населения, являющегося их основным потребителем, увеличивает вес как предлагаемых услуг, так и производителей.

## KIRISH

Xizmat ko'rsatish tarmoqlari O'zbekiston iqtisodiyotidagi ro'li va ahamiyati oshib bormoqda. Bu eng avvalo, uning YaIMdagi ulushining o'sayotganligida o'z aksini topadi.

Respublikamiz xizmatlar sohasining hududiy rivojlanish holatiga e'tibor qaratsak, uning ma'muriy birliklari ishlab chiqarayotgan xizmatlar hajmida farqlar mavjudligini ko'rish mumkin. Bu boradagi geografik farqlar avvalambor mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi hamda demografik salohiyati bilan bog'liq. Taraqqiyot ko'plab nomoddiy sohalarning rivojlanishi uchun turki bo'lsa, ularning asosiy istemolchisi bo'lgan aholi talabi esa taklif etilayotgan xizmat turi hamda ishlab chiqaruvchilar salmog'ini oshiradi.

Respublikamizda 2020-yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar 1482,6 ming so'mdan to'g'ri kelgan. Bunda eng yuqori ko'rsatgich poytaxtimiz Toshkent shaxri xissasiga to'g'ri kelib, davlat ko'rsatgichlaridan 4,6 marta kattaligini ko'rishimiz mumkin. Eng past ko'rsatgich Sirdaryo viloyatiga, Qoraqolpog'iston respublikasi, Namangan, Surxandaryo va Qashqdaryo viloyatlarida aholi jon boshiga respublika O'rtacha ko'rsatgichlaridan deyarli ikki baravar kam xizmat ishlab chiqarilgan.

## ASOSIY QISM

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqadigan bo'lsak Respublikamiz Sirdaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlarida boshqa hududlarga nisbatan ortda qolayotganini kuzatishimiz mumkin. Ijtimoiy infratuzilma bevosita aholi ehtiyoj va talablariga qaratilgan. Xizmat ko'rsatish infratuzilmasi aholiga xizmat qilar ekan, ijtimoiy geografik tadqiqotlarda aholining o'sishi, joylanishi milliy etnik va yosh tarkibini taxlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi hamda ishlab chiqarishning joylashuvi bir biri bilan aloqador bo'lib, hududlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mintaqa aholisining o'sishi respublikamiz boshqa viloyatlariga qaraganda birmuncha sustroq. U 2008-2014-yillarda o'rtacha 8,8 ming kishidangina ko'payib borgan. Bu o'rtacha yillik ko'payish 1,20 foiz demakdir. Vaholanki, mamlakatimiz aholisi so'ngi yillarda 1,60 foiz atrofida ortib bormoqda. Viloyat aholisi ko'payishi uzoqroq tarixiy demografik davr olinsa ham o'sish sur'atlari yuqori emas. Hudud aholisining bunday o'sib borishi uning tabiiy va mexanik harakatiga bog'liq bo'lgan. Aholining tabiiy va mexanik harakatiga ko'ra mintaqada tug'ilish koeffisentining avvalgi 30 yillikka nisbatan birmuncha oshganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan u 2008- yilda 24,3 promilliga teng bo'lgan, 2013-yilda esa 21,9 ni, 2021-yilga kelib 26,5

promillini tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatgich Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm kabi viloyatlar ko'rsatgichlaridan pastroqdir.

Sirdaryo viloyati aholisi tabiiy ko'payishi tug'ilish darajasidagi hududiy xususiyatlarga ega. Bir yilda u 21,7 promilli foizda - olinsa 1,7 foizni tashkil qilib, viloyat aholisining real ko'payish suratlari 1,0 foizdan ortiqroqni tashkil qilayapdi xolos. Aytish lozimki, Sirdaryo viloyati aholisi migratsiya natijasida shakllangan respublikamizdagi yagona mintaqasi xisoblanadi

So'ngi yillarda mintaqasi aholisi birmuncha serqatnov yan'i migratsion faol: 2021-yilda viloyatga, har 1000 kishiga nisbatan xisoblaganda 9,9 kishi kelgan, 11,5 kishi ketgan, migratsiya qoldig'i eng so'ngi 2021-yilda ijobiy bo'lgan. Ko'chib kelish yuqoriligi, ayniqsa, Guliston shaxrida 22,1 %, Yangiyer 10,6, hamda Mirzaobod tumani 9,3% va Guliston tumani 10,5 % ni tashkil qilmoqda.

Sirdaryo viloyatida 257 ta qishloq aholi punkti bo'lib- bu respublikamizda eng past raqam hisoblanadi. Bu yerda har bir qishloq punktiga o'rtacha 1560 kishi to'g'ri keladi. Viloyat qishloqlari o'rtacha kattalikdagi qishloqlar bo'lib, ular avval boshdanoq maxsus reja va shaxarsozlik qoidalari asosida qurilgan. Shuning uchun viloyat qishloqlari ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlanganligi respublikamizning qadimdan o'zlashtirilgan hududlaridan ijobiy xususiyatlari bilan farq qiladi. Takidlash joizki viloyatda ijtimoiy infratuzilma obektlari biroz eskirgan, bazi hududlarda bu tizim hozirgi zamon talab darajasiga deyarli javob bermaydi.

Viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi birmuncha pastligi uning urbanizatsiya jarayonida ham o'z aksini topgan. Mintaqada bironta "yuz minglik" ya'ni katta shaxar yo'q va bu borada respublikamiz geosiyosiy tizimida yagona xisoblanadi. Markaz Guliston shaxri ham bu darajaga yetisha olmagan. Xozirgi kunda Guliston shaxrida 93,4 ming, Yangiyerde 45,3 ming, Shirin shaxrida esa 19 ming aholi yashaydi. Takidlash lozimki so'ngi o'n yilda Guliston shaxri aholisi deyarli o'n ming kishiga ko'paygan, boisi shaxar ijtimoiy infratuzilmasininining yaxshilanib borishi, bir qancha oliy o'quv yurtlarining shaxarda tashkil etilganligi xisobga olinsa, katta ehtimol bilan yaqin 5 yilda respublikamiz katta shaxarlari qatoridan joy olishi mumkin. Xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlanishi va hududiy tarkibini takomillashtirishda o'z navbatida mexnat resurslari soni, tarkibi, ulardan foydalanish hamda aholi bandlik darajalariga ahamiyat beriladi. Ushbu jarayonni tadqiq etish orqali xizmat ko'rsatish sohalarida, mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlari vujudga kelishi mumkin.

Viloyatda mehnatga layoqatli aholi soni 2021-yilda 485,7 ming kishini tashkil etib, unda iqtisodiyotda band bo'lganlar 372,1 ming kishi (2001-yilda 246 ming, 2013-yilda 448 ming) ni tashkil etgan.

Mintaqa aholisining ko‘p millatliligi qisman yuqorida aytib o‘tilgan demografik omillarga bog‘liq. Bu yerda o‘zbeklardan tashqari, qozoq, tojik, rus, tatar, va boshqa millat vakillari yashaydi.

## XULOSA

Ma’lumki, aholining joylashish xususiyatlari kelgusida hududlar bo‘yicha ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni qay tarzda olib borish muhimligini ko‘rsatib beradi. Demak viloyat xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantrishda, aholi zichligi, yosh tarkibiga va milliy tarkibini taxlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur taxlillar natijasida demografik jarayonlarni xisobga olgan holda, xizmat ko‘rsatish infatuzilmasini hududiy tashkil etishning kelajak istiqbollarini bashorat qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. P. Baratov “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” -T: O‘qituvch, 1996.
2. A. Soliyev “O‘zbekiston geografiyasi” –T: Universitet, 2014.
3. Asanov G. Nabixonov M. Safarov I “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy jog‘rofiyasi-T: O‘qituvchi,1994
4. Gudalov, M. (2022). Айдар-Арнасой кўллар тизимида сув ҳажмининг ўзгариши ва атроф-мухитга таъсири. *Journal of Geography and Natural Resources*, 1(1).
5. Gudalov, M., & Imamova, D. (2020). Development Of Ecoturism In Aydar-Arnasay Lakes System And Its Surroundings. *The American Journal of Applied sciences*, 2(10), 150-153.
6. Gudalov, M., & Gozieva, M. (2021, February). Eco-Trail Routes In Zaamin National Park. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 68-71).
7. Burkhanovich, A. S., & Tairovna, S. N. (2018). Aydar-Arnasay lake system: ecological safety and its problems of sustainable development. *European science review*, (5-6), 275-278.
8. Gudalov, M., & Imamova, D. (2020). Development Of Ecoturism In Aydar-Arnasay Lakes System And Its Surroundings. *The American Journal of Applied sciences*, 2(10), 150-153.